



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

2022

MAY
№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Farmonova Nilufar Qutbidinovna, Mavlonova Hilola Jumaqulovna	
XALQ ERTAKLARIDA ILGARI SURILGAN G'ÖYALAR	7
2. Ibragimova Marg`ubaxon, Xoldorova Nigoraxon Odilovna	
ONA TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MNEMONIKA ELEMENT-LAIDAN FOYDALANISH BO`YICHA BOSHLANG`ICH SINF O`QITUVCHILARIGA METODIK TAVSIYA.....	9
3. Darveshova Sabohat Yoshuzoqovna	
ADABIYOT DARSLARI VA DARSLIKLARINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI	11
4. Rajabova Sadoqat Tojiddinovna, Rasulova Maftuna Qayimovna	
BOBORAHIM MASHRABNING HAYOT VA IJOD YO`LI.....	13
5. Xoliqulova Nafisa Mezamovna, Yuldosheva Laylo Hikmatillayevna	
BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDA SULTON JO`RA ASARLARINING O'RNI	15
6. Baltayeva Gulnoza	
ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	17
7. Sabirov Shuhrat	
HOW TO INTEGRATE STEAM IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM	19
8. Qurbanova Baxtigul Juraboyevna	
ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG`ZAKI IJODINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O`RGATISH	21
9. Sardor Abdurahmonov	
CHO`LPONNING MUNAQQIDLIK FAOLIYATI.....	23
10. Asqarova Dilfuza	
BADIY TIMSOLLAR VA ULARNING TASNIFI.....	25
11. Yoqutxon Rahmonova, Sherqulova Shoiraxon	
XALQ OG`ZAKI IJODI-BEBAHO BOYLIK	27
12. Osipoxon Hoshimova Yolqinjon qizi	
ADABIY JARAYON VA ADABIY TANQID	28
13. Mirzagaliyeva Umidaxon Baxtiyor qizi	
ABDULLA QAHHORNING HIKOYA YARATISH MAHORATI.....	30
14. Sobirova Dilorom Isoqovna	
QOZOQ ADABIYOTINING YETUK NAMOYANDASI ABAY QO`NONBOYEV HAYOT YO`LI VA UNING “NASIHATLAR” ASARINI O`RGANISH BO`YICHA USLUBIY TAVSIYALAR	32
15. Toshpo`latova Dilshoda Adxamovna, Alijonova Oygul Abdurayimovna	
MUMTOZ ASARLARNI O`QITISH BO`YICHA TAVSIYALAR	34
16. Galdiyeva Gulnoza Olimboyevna, Boboniyozirova Sezgira Shavkatovna	
YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI	36



АДАБИЁТ

XALQ ERTAKLARIDA ILGARI SURILGAN G‘OYALAR

Farmonova Nilufar Qutbidinovna,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar

17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: 998 944848885

Mavlonova Hilola Jumaqulovna,,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar 17-maktab

boshlang‘ich sinf o‘qituvchi

Telefon. 998 907175811

Annotatsiya: Maqolada xalq ertaklarida ezgulik, yaxshilik, mehnatsevarlik, mardlik kabi xislatlarning ulug‘lanishi, insonlardagi salbiy qoralanishi, ertaklarda xalqning kelajak o‘z orzu-umidlari ifoda etilishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Romantik tasvir, ertaklar xotimasi, optimistik yo‘nalish, “Oltin tarvuz”, mehnat, “Uch og‘a-ini botirlar” ota nasihatni, botir, dovyuraklik, alq dahosi

Ertak xalq og‘zaki ijodining nodir namunalaridan biridir. Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g’oya tashuvchi hikoyalar ertak deyiladi. Ertaklar epik folkloarning eng sermahsul janri hisoblanadi.

Xalq ertaklarida el-yurtni asraguvchi vatanparvar qahramonlar ulug‘lanadi, kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma‘qul xislatlar tanqid ostiga olinadi. Ertaklarda mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, to‘g‘rilik, saxiylik g‘oyalari ilgari suriladi. Xalq prozasi bo‘lgan ertakda, ayniqsa, romantik tasvir kuchli bo‘ladi. Unda qahramon jabr-jafo chekadi, qiyinaladi, ammo oxiri baxtga erishadi, tengsiz jangda, kurashda g‘olib chiqadi. Ertaklar xotimasi xalqning idealidan, uning orzu-umididan kelib chiqadi. Busiz mumkin emas, ertak xalqning o‘z kuch-qudratini anglab olishga madad berishi, uni baxtiyor kelajakka tomon ilhomlantirishi, kurashga chorlashi va shu kurashning g‘alabasiga ishontirishi kerak. Bunday optimistik yo‘nalish turli ertaklarda: hayvonlar haqidagi ertaklarda ham, sehrli-afsonaviy ertaklarda ham, ijtimoiy-maishiy ertaklarda ham, hayotiy ertaklarda ham ufurib turadi. Masalan, “Kambag‘al qiz”, „Podachining qizi”, “Zumrad va Qimmat”, “Ota vasiyati”, “Ko‘k qo‘chqor”, “Uch og‘ayni botirlar”, “Donishmand yigit”, “Halollik”, “Ochko‘z boy”, “Ko‘zacha bilan tulki” “Hiylagarning jazosi”, “Kambag‘al-qashshoq” kabi ertaklarini olib ko‘raylik. Bunday ertaklarda mehnatkash xalqning mung va zori, qayg‘u va hasrati ham, quvonchi va baxtli, shod va erkin kunlarga intilishlari ham o‘z ifodasini topgan, yaxshi yashash haqidagi ezgu niyat, orzu-umidi aks etgan

Ertak qahramonlari poklik, aql-zakovat, tadbirkorlik, qahramonlik bilan ish ko‘rganliklari uchun ham omadlari keladi, baxtli bo‘ladilar.

Mehnatkash xalq bechorahollik bilan hayot kechirgan, ko‘pincha, ochlik, yupunlik ularning bir umr hamrohi bo‘lgan. Uzun tunlari bir-birlarini ovutish, ko‘ngillarini ko‘tarish maqsadida ertaklar aytishgan. Xalq to‘qigan ertaklarda unumli mehnat qilish, farzand rohatini ko‘rish, baxtiyor bo‘lish, olivjanoblik, ezgulik g‘oyalari yotadi. O‘rni kelganda birdaniga katta boylikni qo‘lga kiritib, el-yurtni, boy-badavatlarni qoyil qoldirish mehnatkash xalqning ezgu tilagi bo‘lib kelgan. “Oltin tarvuz” ertagida xalq xuddi shunday orzu-niyat, oliy istagini ifoda etgan.

“Oltin tarvuz” bolalarga ko‘p jihatdan ibratli. Unda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug‘lanadi, dehqon o‘z yeriga qayta-qayta ishlov beradi. Ikkinchidan, parrandalarga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyasi ilgari suriladi. Dehqon laylakning majruh oyog‘iga taxtakach bog‘lab davolaydi. Uchinchidan, ochko‘z bo‘lmaslikka da‘vat etiladi — dehqonning uyida hech vaqosi yo‘q. Laylakni so‘yib yeishi mumkin edi, ammo u bu ishni qilmaydi.



Umrni ezgu ishlarga, yaxshilik qilishga bag’ishlash eng noyob fazilatdir. Ota-onaga muhabbat, hurmat, ularning xizmatini qilish — muqaddas burch. Bu sharaflı burchni ado qilib, ota-oná olqishini olgan farzand dunyoda baxtli, saodatli bo’lib yashaydi. “Uch og’a-ini botirlar” ertagida farzandlarninig ota oldidagi burchini ado etishini ko’rish mumkin.

Ertakdagi ota o’g’illariga yaxshi tarbiya beradi. Natijada o’g’illari ota izidan borib, komil insonlar bo’lib kamol topadilar. Ota duosi, o’git-nasihatlarini dillariga jo qilib olganliklari uchun ular hayotda kam bo’lmaydilar. Ota o’g’illarini safarga kuzatib qo’yishdan oldin ularga shunday pand-nasihatlar qiladiki, biz bu pand-nasihatlardan ushbu kishining qanday odamligini osongina bilib olamiz. “O’zimdan keyin baxtsiz bo’lib qolmanglar deb, sizlarni o’qitdi”, — deydi u. “Uch og’a-ini botirlar” ertagini qahramonlari mehribon, qattiqqo’l, talabchan ota tarbiyasini olganliklari uchun safar tashvishlarini osonlik bilan daf etadilar. Yo’lda o’zlariga duch kelgan barcha to’siq va g’ovlarni yengib o’tadilar. Botir va dovyurakligi bilan el-yurt olqishini olib, baxtiyor bo’ladilar.

Xalq dahosi bilan yaratilgan ertaklar yosh avlodning tarbiyasiga kuchli ta’sir qiladi va ma’naviy hissiyotni uyg’otadi. Ertaklar insonni o’z kuchi, o’z huquqi, o’z ozodligini anglatishi, undagi mardlik va vatanga muhabbat tuyg’ularini uyg’otishi bilan ham ma’naviy oziqa berib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. —O_zbekiston, 2017.
2. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.-T.:2019-yil 29-aprel, PF-5712-sonli farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari. Toshkent. 2017.
4. Matchonov.S., Shojalilov.A., G’ulomova.X., Dolimov.Z. O’qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – T. 2017.
5. Madayev O. O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. –T.: 1999.



**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSALARIDA MNEMONIKA
ELEMENTLAIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BOSHLANG'ICH SINF
O'QITUVCHILARIGA METODIK TAVSIYA**

Ibragimova Marg`ubaxon, Xoldorova Nigoraxon Odilovna
Farg`ona viloyati Dang`ara tumani XTB tasarrufidagi
24-umumiy o`rta ta`lim mакtabiboshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotasiya: boshlang`ich ta`limda og`zaki va yozma nutqqa e`tibor muhim masalalardan hisoblanadi. Maqolaning asosiy maqsadi ham, ayniqsa, boshlang`ich ta`limda o`quvchi-yoshlarni og`zaki va yozma nutqini boyitishga, so`zlarning va matnlarning yodda saqlash ko`nikmalarini o`stirishga va xotirasini kuchaytirishga qaratilgan va tavsiya berishdan iborat.

Kalit so`zlar: ta`lim tizimi, og`zaki va yozma nutq, mnemonika, ijodkorlik, so`z yodlash sirlari, intellektual (aqliy) salohiyat, so`z va gap, raqamlar, qofiya, o`yin texnologiyasi, zamonaviy pedagog, hamkorlik.

Respublikamiz xalq ta`limi oldida turgan muhim vazifa har tomonlama yetuk bo`lgan, ijodkor va qobiliyatli, o`z yurti va xalqiga sodiq insonlarni kamolga yetkazish va tarbiyalash, voyaga yetkazishdan iboratdir. Bugungi kun o`quvchilari ilm-fan, ijod va qobiliyat kabilarga be`etibor emas, balki bo`layotgan o`zgarishlarga qiziquvchan, izlanuvchan, u haqda to`lqinlanib gapirishga izlanuvchan yoshlardir. Shuning uchun ham ularning nutqi aniq va ravon so`z va gaplardan tuzilgan bo`lishi, xotirasi mustahkam, ko`p narsalarni tez eslab qola oladigan, hamkorlikda va mustaqil ishlay olish qobiliyatiga ega bo`lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Mnemonika o`zi nima? Bu so`z ko`pchilikka notanish so`z. Lekin tez fursatda o`z doirasini kengaytira oлган metodikalar safidan joy oldi.

Mnemonika – sun`iy assotsatsiyalar hosil qilish yo`li bilan eslab qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Mnemonika – eslab qolish san`ati. Mnemonika usullari xotirani kengaytiradi, miya faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Mnemonikaning bir nechta turlari bo`lib, shulardan biri mакtab o`quvchilariga va talabalar uchun javob beradi. Uning mohiyati shundaki, qayta yozish, yodlash va takrorlash orqali tabiiy yodlash kerak.

Har bir inson mnemonik xotiraga ega, lekin uni o`zlashtirish kerak. Buning uchun g`ayritabiyy qobiliyatlar kerak emas. Bunday texnikanung ishlash prinsipi xotiraning jonli vizual va eshitish tasvirini mavhum tushunchaga qaraganda tezroq tuzatish qobiliyatiga assoslanadi.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi darslarida tez-tez she`r yodlash, matnni qayta hikoyalash kabi topshiriqlar berib boriladi. She`rni yodlash va ifodali o`qib berish hamma uchun ham oson ish emas. Hammada xotiraning quvvati har xil. Ammo, bu muammoning yechimi bor. Quyidagi usullar bir qarashda qiyin, ko`p bilim talab etadigandek bo`lishi mumkin. Lekin, ularga amal qilib, bosqichma-bosqich mahoratingizni oshirib borsangiz, vaqt o`tishi bilan har qanday she`rni tez va yaxshiroq yodlab ola boshlaysiz.

1. Uy ishini she`r yodlashdan boshlagan ma`qul. Avval she`r ichda o`qilib, notanish so`zlarni kattalar va ustozdan ma`nosini bilib olish kerak. Jarayonlar ketma-ketligini eslab qolish kerak.
2. She`rni ovoz chiqarib o`qish kerak. Bu o`zlashtirishni yengillashtiradi.
3. She`rni aytib berishga tayyorlaning. Esdan chiqqan joyiga kitobga qarab olish mumkin.
4. She`rni ko`chirib yozing. So`zlarni ifodali o`qishga harakat qiling.
5. Birinchi misrani baland ovozda o`qing va 5-6 marta shu misrani takrorlang.
6. Har bir satrning bosh so`zini eslab qoling yoki yozib oling. Shunda eslash oson kechadi.
7. She`rni to`liq aytib berishga harakat qiling.
8. Yotishdan oldin va uyqudan keyin ham takrorlang. Shunda u xotirangizga chuqurroq o`rnashadi.

Boshlang`ich sinflar uchun yangi taxrirdagi ona tili va o`qish savodxonligi darsliklarida (1-sinf) mnemonika haqida ma`lumot berilgan. Lekin mnemonika bo`yicha mashqlar ham berilsa, yaxshi bo`lardi. Mnemonika elementlaridan dars jarayonlarida foydalanish o`quvchining xotirasini, diqqatini, mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Eslab qolishning tabiiy jarayonlari bo`lgan g`oyalar, faktlar va ma`lumotlarni xotiraga qayd qilishning 3 ta asoaiy talabi bo`lib, ular: taassurot, assotsatsiya (voqeа yoki hodisa bo`layotgan joyni eslash) va takrorlashdir. Mana shularga amal qilish kuchli xotira sari yetaklaydi.



Mnemonika elementlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda bog'lanishli nutq tuza olish malakalari ham rivojlanib boradi. Masalan, bayroq, mashina, shapka, odam, paqir, gul kabi so'zlarini berib (yozib), ularning ketma-ketligi bo'yicha tartib bilan takrorlash topshirig'ini berish orqali o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish mumkin. Buni qayta eslash uchun o'quvchilar bu so'zlar ishtirokida hayolan bog'lanishli nutq tuzib oladilar va uni qaytarish orqali oson eslab qoladilar. Yuqoridagi so'zlar ishtirokidagi bog'lanishli nutq quyidagicha bo'lishi mumkin: Bayroq ilining mashinada shapka kiygan odam qo'lida paqir bilan gul tergani bordi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida "Mnemonika elementlaridan foydalanish" mavzusidagi ushbu tavsiyadan foydalanish hozirgi kun talabidan kelib chiqib, 1-4-siflarda so'z, gap va bog'lanishli nutq tuzish va ular ustida ishlash topshiriqlari xotirani kengaytirish uchun juda ahamiyatlari hisoblanadi. Chunki rivojlangan davlatlarning metodikalarini amalga tatbiq etish maqsadida PIRLS, TIMES, PISA tadqiqotlarida ishtirok etmoqdalar. Yangi taxrirda joriy etilgan ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari ham ana shu metodikalardan andoza olgan holda yaratilgan va o'quvchilarni ijodkorlikka va o'z qobiliyatlarini namoyon etishga yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova, S. Matjonov, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir"-2009
2. Yangi taxrirdagi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi. Yangi nashr 2021-yil Elektron ta'lim resurslari
 1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz
 2. Ijtimoiy axborot ta'lim portal: www.ziyonet.uz
 3. Mnemonika.uz sayti



**ADABIYOT DARSLARI VA DARSLIKLARINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY
AHAMIYATI**

Darveshova Sabohat Yoshuzoqovna

Buxoro viloyati Qorako'l tumani
10-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarining mazmun mohiyati, adabiyot darslari orqali o'quvchining o'zligini topishi haqida, adabiyot darsliklari o'quvchilarning ongini, fikrlash qobiliyatini oshiradigan qilib yaratilishi haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, ta'lif, o'zlikni anglash, badiiy so'z, fikrlash qobiliyati, intellektual imkoniyat, darslik, darslar, fikr.

Ta'lif mazmunini tashkil etadigan o'quv rejasi, ta'lif konsepsiysi va standarti, dastur, darslik, metodik qo'llanma singari vositalar o'qituvchi shaxsi bilan muvofiqlashgan holdagina o'qitish samarali bo'ladi. Chunki o'quv jarayonining qanday ma'no-mazmun kasb etishi bevosita o'quvchining shaxsi, uning saviyasi, bilimi va mahoratiga bog'liq. Jamiyat va ta'lif jarayonidagi o'zgarishlarni ro'yobga chiqaradigan ham, o'quvchi bilan bevosita yuzma-yuz turadigan ham o'qituvchi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida yigirmadan ortiq o'quv fani o'rganiladi. Ularning ko'pchiligi bevosita o'quvchi tafakkurini o'stirish, bilim berish maqsadiga yo'naltirilgan. Ayrim fanlar esa bolaga kasb-hunar o'rgatishga xizmat qiladi. O'quv fanlari orasida faqat adabiyot bevosita bolaning ko'ngli, uning ruhiyati va ma'naviyatini kamolga yetkazish vositasi hisoblanadi. Adabiyot darslari mutaxassis shakllantirish uchun emas, shaxs ma'naviyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois adabiy ta'lif jarayonida sof adabiyotshunoslikdan bilim berish emas, balki, inson ko'nglini tarbiyalash ustuvor bo'lmos'i maqsadga muvofiqdir. Adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlil qilinib, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama etilish jarayonida o'quvchilar odam va olam sirlarini o'rghanadilar, asar muallifi va adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etadilar, oxir-oqibat navqiron fuqaro o'zligini anglay boshlaydi. O'zligini anglagan, mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lgan odam o'z taqdirini boshqalar hal qilib yuboraverishiga yo'l qo'yaydi.

Insonga xos xususiyatlar bevosita ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani uchun ham bugun ma'naviyat tarbiyasi mamlakat miqyosidagi muhim vazifaga aylandi. Ma'naviyatni tarbiyalash esa maktabda asosan adabiy ta'lif tizimi zimmasiga yuklanadi. To'g'ri, barcha o'quv fanlari zimmasida ma'lum darajada ma'naviyatni shakllantirish vazifasi bor. Biroq, adabiy ta'lif bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning tadqiqot obyektining o'zi - inson. Adabiyot darslarida odamning ichki olami, his-tuyg'ulari, kechimmalari, hayajonlari, iztiroblari o'rghaniladi, tahlil qilinadi, munosabat bildiriladi. Inson umri davomida turli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablari va oqibatlari aniqlanadi, muammolarning yechimi ustida o'yga tolinadi.

Adabiyot darsliklari balog'atga yetgan, badiiy so'z bilan muayyan darajada qiziqadigan yoki ma'lum darajada shu sohaga bog'liq bo'lgan kishilar uchun emas, balki o'sib kelayotgan yosh avlod uchun tuzilishi sababli ham darsliklarning adabiyotshunos yoki pedagog olim tomonidan yaratilgani katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyot darsliklarini yaratishda nazarda tutilishi lozim bo'lgan jihatlardan yana biri shuki, har bir sinfda o'quvchining intellektual va ruhiy xususiyatlari o'ziga xos bo'ladi. Shu bois ta'limning biror bosqichida o'quvchi tomonidan boy berilgan imkoniyatlar o'rmini hech qachon qoplab bo'lmaydi. O'z vaqtida qo'llangan tarbiyaviy tadbirlar bolaning shaxsi, jismi, ruhiyati takomili uchun ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'limning har bosqichida bolaning fikrlash qobiliyati shu yoshdagagi ruhiy va intellektual imkoniyatlari doirasida rivojlana boradi. Xususan, adabiyot darslarida amalga oshiriladigan badiiy asar tahlili uni o'z shaxsiy fikriga, munosabatiga ega bo'lib borishini ta'minlaydi. Masalan, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchi badiiy asar qahramonlariga shunchaki taqlid qiladi, ularga ergashadi; ta'limning o'rta bosqichida esa uni asar qahramonlarining axloqiy sifatlari, ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turki bo'lgan omillar ko'proq qiziqtira boshlaydi. Ammo yosh bola qahramon shaxsiga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni inobatga olgan holda baholashga qodir bo'lmaydi. Ko'pincha u qahramonning ba'zi fazilatiga urg'u berib, uning shaxsini biryoqlama baholaydi.

Majburiy ta'lif tizimining yuqori bosqichiga qadam qo'yan o'quvchi esa muallim yoki otonasining aytganlari, kitob va darsliklarda o'qiganlariga tanqidiy nazar bilan qaray boshlaydi.



Ko'pincha muallimning fikr-mulohazalaridan, darslikdan xato topishga intiladi, o'z pozitsiyasida qattiq turib, bahslashishga moyil bo'ladi. Darsliklarni tuzishda bola taraqqiyotining har bir bosqichiga xos bo'lgan shu kabi jihatlar hisobga olinishi, o'quvchilarning ruhiy, jismoniy va jinsiy xususiyatlari, intellektual imkoniyatlaridagi o'zgarishlar mualliflarning nazaridan chetda qolmasligi kerak bo'ladi. Darsliklar o'quvchilarning har bir yoshdagi ichki „men” iga mos tushishi, sinfdagi eng bilimdon, bilimga chanqoq o'quvchini ham ortidan ergashtira olishi lozim. Shunda o'quvchilarga darsliklar bilan muloqot malol kelmaydi, ularda o'zining ichki ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilayotgan darslikka, predmetga mehr uyg'onadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova Adabiyot o'qitish metodikasi.
2. Q. Yo'ldoshev, O. Madayev, A. Abdurazzoqov Adabiyot o'qitish metodikasi.
3. www.uzedu.uz
4. www.adabiyot.uz



BOBORAHIM MASHRABNING HAYOT VA IJOD YO’LI

Rajabova Sadoqat Tojiddinovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani

32-maktab ona tili va adabiyot o’qituvchisi

Rasulova Maftuna Qayimovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani

3-maktab ona tili va adabiyot o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boborahim Mashrab hayoti va ijodini umumta’lim maktablarida o’qitish usullari haqida mulohaza yuritilgan. O’quvchilarga Mashrab haqida ma’lumotlarni tez va oson o’rganish yo’llari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Mashrab, tarix, manbaa, badiiy adabiyot, g’azal, mazmun, ishq, ijod.

Umumta’lim maktablarida badiiy adabiyotni o’rganish uzoq tarixga ega bo’lgan xalqimizning ma’naviy hayoti, uning adabiyot, san’atga ega bo’lgan munosabatini bildirishni manbai hisoblanadi. Shu jihatdan darsliklarda o’zining adabiy merosi bilan mashhur bo’lgan yozuvchi va shoirlarning ijodiga oid manbalar haqida fikrlar yuritilgan, ularning asarlarini yaratilishi, g’oya muallifning o’z davriga nisbatan munosabati, ijodiy olami, asarlari haqida ma’lumot berilganki, bu vositada jamiyat a’zolarini yetuk insonlar qilib, yetkazish maqsad qilib olingan.

Mashrab g’azallarini o’rganishda uning muallifi haqidagi ma’lumotlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ma’lumotlar ko’pincha, asarning g’oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to‘g’ri belgilashda yordam beradi. Uning Ollohga bo’lgan ishqni har narsadan ustun turishi g’azallarida aks etib turadi.

Boborahim Mulla Vali (Valibobo) o’g’li Mashrab o’z ijodi bilan o’zbek adabiyotida xalqchillik, ijtimoiylik va dunyaviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid’atta qarshi kurash g’oyalaring kuchayishida, she’riyat shakllarining takomillashuvi hamda badiiyatning kamolga erishuvida katta o’rin tutgan so’z ustalaridan biridir. Boborahim Mashrab hayoti va ijod yo’li haqida ma’lumot beruvchi tarixiy manbalar ko’p emas. Uning nomi XVIII–XIX asrlardatuzilgan ayrim tazkira va tasavvufiy yo’nalishdagi asarlarda (Muhammad Bade Malehonning “Muzakkir ul-as’hab”, “Tazkirai Fah-miy”, “Musavvai Abdushshukur Ziyo”, “Tazkirai avliyoi Majzub Namangoniy”) zikr etiladi. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma’lumotlar nihoyatda kam, uzuq-yuluq va biri-biriga zid. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma’lumot beruvchi manba yo’q. Uning o’z asarlarini to‘plab devon yoki biror majmua tuzganligi ma’lum emas. Faqat “Devoni Mashrab”, “Devonai Mashrab”, “Eshoni Mashrab”, “Hazrati shoh Mashrab” nomlari ostida xalq orasida qo’lyozma va toshbosma shaklida juda keng tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi aniq belgilangan emas) shoirning hayot yo’li va ijodiy faoliyati ma’lum tartib va izchilikda bayon etiladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. Mashrab faoliyatining qator nuqtalari aniq va tarixan to‘g’ri qayd etilganidan qissaning birinchi nusxalari shoirni yaqindan bilgan va asarlaridan yaxshi xabardor shaxs tomonidan, o’sha davrlardayoq yaratilgan, deb taxmin etish mumkin. Ayni zamonda, u uzoq yillar davomida o’zgartirish va tuzatishlarga duch kelgan, turli to‘qimalar, yangi-yangi rivoyat, naqllar, sarguzasht va latifanamo lavhalar bilan to‘ldirila borilgan. Natijada qissalarda tarixiy Mashrab faoliyati xalq tasavvuridagi to‘qima Mashrab hamda u haqidagi sarguzasht – rivoyatlar bilan qorishib, chatishib ketgan. Shunday bo’lsada, Mashrab haqidagi qissalar shoir hayot yo’lini nisbatan to‘la va bosqichma-bosqich o’zida jamlovchi adabiy tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham qayd qilish kerakki, ijodkor tarjimai holini o’rganishda o’qituvchi faqat darslik materiallari bilan chegaralanib qolmasdan, yozuvchining adabiyotda tutgan o’rni, o’zi yashagan jamiyatga munosabati, ayniqsa, ijodga xos xususiyatlar, shuningdek, falsafiy-estetik qarashlari bilan bog’liq bo’lgan ilmiy asarlardan foydalanishi mashrabshunos olimlarning tadqiqotlari haqida o’quvchilarga ilmiy ma’lumot berishi yozuvchi ijodiga xos xususiyatlarni, eng muhimmi, uning adabiy jarayon poetik san’atini tushunish imkonini beradi.

Biz mavzu qilib tanlagan Mashrab hayoti nihoyat voqealarga boy, ijodiy olami esa ummon bo’lib, xususan, uning g’azallarida shoirning lirik kechinmalari, oshiq dilining hijronli damlari, shu bilan birga, Mashrabning ilohiyot nuriga intilishi bilan bog’liq bo’lgan badiiy san’atning jonli namumalari kitobxonni shoirning hayoti haqida o’ylashga, oshiq kechinmalarini his



qilishga undaydi. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot va xulosalar o‘zbek mumtoz adabiyotining alohida bobini tashkil etuvchi Mashrab haqidagi xulosalari uning adabiyotimizdagi nihoyat o‘ziga xos go‘zal, kitobxonga estetik zavq beruvchi sahifalar haqida ilmiy tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi.

Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganishga oid ko‘plab ilmiy ma’lumotlarga duch kelamiz. Adabiyotshunos olim professor R.Orzibekovning shoir haqidagi ilmiy xulosasi diqqatga sazovordir. Unda iste’dodli shoirning tabiatni, din ahliga munosabati, soxta ulamolarga nisbatan shafqatsizligi, ularni fosh qilishi, yolg‘iz yaratgan ilohiyotni qalbiga joylashi, eng muhimmi, uning nuri-shafaqiga bo‘lgan umid va intilishlarini Mashrab adabiy merosining tahlili va ichki qonunlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asosda talqin etilgan. O‘qituvchining dars davomida bunday ma’lumotlardan foydalanishi o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan, xususan, Mashrab ijodiga bo‘lgan havaslarining oshishi aniq.

Mashrabning adabiy ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g‘oyalari ham, o‘sha asarda, ayniqsa, keng tarqalgan qalandarlik tariqati g‘oyalari ham sezilarli o‘rin egallaydi. Dunyodagi barcha hoy-u havaslarga qarshi ochiqdan-ochiq salbiy munosabatini ham asarlarida ifoda etadi. Ularga mensimaslik, shakkoklik bilan qaraydi, ba’zan ular ustidan kuladi ham. Buning asosiy sababi shoirning:

Bir Xudodin o‘zgasi barcha qalardur, Mashrab,

Gul agar bo‘lmasa ilkimda tikonni na qilay?

misralarida o‘z ifodasini topgan. Bu misra orqali Mashrab “*e’tiqod qiladiganim bir xudodir*” demoqchi. Agar qo’limda gul bo‘lmasa tikonni nima qilaman deb o‘zining Allohga bo‘lgan samimiish qilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Mashrab ijodi o‘quvchilarga Ollohga bo‘lgan pok ishqning namunasi ekanligini ko’rsatib berishdan iboratdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. www.saviya.uz
2. www.hozir.org



BOLALAR TA’LIM-TARBIYASIDA SULTON JO‘RA ASARLARINING O‘RNI

Xoliqulova Nafisa Mezamovna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

90-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: 998 99 388 56 74

Yuldasheva Laylo Hikmatillayevna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

90-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchi

Telefon. 998 94 254 68 65

Annotatsiya: Maqlada pedagog-shoir Sulton Jo‘ra asarlarida maktab hayoti, bolalarning o‘qishi, ko‘cha va oilada o‘zini tutishining haqqoniy aks ettirilishi, uning she‘r va dostonlarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Kimning xati chiroyli”, she‘r, o‘zbek tili grammatikasi, yozma nutq san’ati, “Yolg‘onchi”, doston qahramoni, rostgo‘y bo‘lish, a’lo o‘qish.

Badiiy adabiyot bolalarga aqliy, axloqiy va estetik tarbiya berishda, nutqini har taraflama rivojlantirishda va boyitishda, ma’naviyatini yuksaltirishda katta ta’sir etuvchi muhim vositadir. Boshlang‘ich ta’limda bolalarni badiiy adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishda o‘qish fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma’naviyat kabi umumiyy mavzular doirasida birlashtirilgan. Boshlang‘ich ta’lim o‘qish fanidan badiiy asarlarni sinfdan tashqari o‘rganish yuzasidan o‘quv dasturi va rejasi mavjud. Ammo bu dastur va rejada tanlangan mavzularni o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan o‘zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o‘quvchilarni tanishtirib borish bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu o‘rinda bolalar uchun qiziqarli va mazmunan boy hikoya, ertak, doston va she‘rlar yozgan Sulton Jo‘raning ijodi haqida so‘z yuritmoqchiman.

Sulton Jo‘ra kattalar uchun jo‘sinqin lirik she‘rlar, yirik dostonlar yaratish bilan birga, bolalarga atab ham ajoyib asarlar yozdi. Uning “Qaldirg‘och”, “Jannat” kabi ertak-dostonlarida yosh kitobxonning romantik olami ifodalanadi. Shoir “Zangori gilam” she‘riy ertagida folklor motivlaridan keng foydalanish orqali yoshlarning ichki olamini, sir-asrorini ochib beradi. “Karim va Qunduz” dostonida mehnat va uning gashti, rohati haqida so‘zlaydi.

Shoir-pedagog Sulton Jo‘ra bolalar uchun yozgan asarlarida baxtli bolalik, Vatanga muhabbat va dushmanga nafrat, mehnat ahllariga e’tiqod tuyg‘ularini ifodaladi. Ayni chog‘da, u yaxshi va a’lo baholarga o‘qish uchun kurashish, rostgo‘y va intizomli bo‘lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egallash kabi ta’lim-tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g‘oyalalar shoirning “Yozgi yomg‘irdan so‘ng” (1936), “Qizlar”, “A’lo” va “Yaxshi”ning maqtovi”, “Zangori gilam” (1939), “Lola”, “Oy nechta?”, “Tinish belgilaringin majlisi”, “Cho‘ntak”, “Sirkda” (1940), “Qarzdor”, “Qaldirg‘och”, “Yolg‘onchi”, “Dengiz tagida” (1941), “Sog‘inib” (1942), “Sog‘inchli salom”, “Salom xat” (1943) kabi asarlarida o‘z ifodasini topdi.

U o‘z asarlarida bolalar va maktab hayotini, ularning o‘qishi, ko‘cha va oilada o‘zini tutishini haqqoniy aks ettiradi. Sulton Jo‘ra bolalarni yaxshi o‘qishga da’vat etibgina qolmay, ularning yaxshi o‘qishi uchun eng zarur bo‘lgan narsalarni, ayniqsa, o‘zbek tili grammatikasi qoidalarini bilish zarurligini bolalarga obrazli tilda tasvirlab berdi. U “Kimning xati chiroyli” she‘rida xunuk yozilgan xatdan kulib, bolalarni chiroyli, toza, to‘g‘ri yozishga chaqiradi. Chiroyli yozishni katta bir san’at deb uqtiradi. “Kimning xati chiroyli” da bolaning sog‘lom, baquvvat bo‘lib kamol topishida, yozma nutqining go‘zal bo‘lishida partada to‘g‘ri o‘tirish qoidasiga qat’iy rioya qilish katta ahamiyatga ega ekanligini ham uqtirib o‘tadi:

O‘tirishim to‘g‘ri, soz,

Qoidaga juda mos.

Ko‘kragimni men sira



O'ltinganim yo'q tirab!
Chiroyli yoz,yozsang xat!
Chunki bu ham zo'r san'at...

Ta'limgan sohasida yozma nutq san'atini egallash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shoiring ushbu she'ri o'quvchilarni grammatik mashqlar bilan jiddiy shug'ullanishga, chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilishga, turli xatolarga yo'l qo'ymaslikka chorlaydi.

Sulton Jo'ra bolalari hayotidan “Yolg'onchi”, “Cho'ntak”, “Qizlar” asarlarini yozgan. “Yolg'onchi” dostonida bolalarni rostgo'y bo'lishga, yaxshi va a'lo o'qishga chaqiradi. Doston qahramoni No'mon maktabda ta'limgan qoidasini buzuvchi, o'qituvchi va ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qiluvchi bola sifatida gavdalanadi. Shoir No'mon qoniqarsiz o'qishiga qaramay, o'zini tuzatish o'rniga o'qituvchiga zarda qilishi, yolg'on gapirishi, o'jarligi, dars tayyorlamasligini va ishyoqmasligini turli hayotiy parchalarda juda ishonarli tarzda ochib beradi. Chunonchi, No'mon o'qituvchi yozib bergen xatni yirtib tashlab, “2” baholarini yashirib, o'zini a'lochi qilib ko'rsatib beodobligini fosh etadi. O'qituvchi va ota-onasi ta'sirida No'mon butun kamchiliklarini anglab yetadi, yaxshi o'qishga va'da qiladi va va'dasining ustidan chiqadi. Doston o'z kamchiliklarini anglab, o'qishga astoydil berilgan No'monning ijobiyligi xatti-harakatini ulug'lash bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog-murabbiy va shoир Sulton Jo'raning o'zbek bolalar adabiyoti xazinasida munosib o'ringa ega bo'lgan qimmatbaho asarlari haqida tahliliy ma'lumotlarni ko'p keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umumiyligida o'rta ta'limgan davlat ta'limgan standarti. T.:2005
2. Abdulla Suyumov, Mamasoli Jumaboyev. “Bolalar adabiyoti” T. 1995-yil.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Baltayeva Gulnoza,
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
49-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon: +998937419691

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko‘pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik g‘oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o‘zbek adabiyoti xazinasiga o‘zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo‘sghan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g‘oyalariha hamohang bo‘lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A.Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shtonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlari Abdulla Qahhor ijodiga xos ko‘pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergen erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o‘rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma’noda, A.Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o‘rinlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o‘tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta’sirida yuz bergen voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziysi bilan yaratilgan obrazlar bo‘lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko‘proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo‘lib, davr voqeligi tasviriga bag‘ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo‘lib o‘tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko‘raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo‘ja domla, shahar maorif bo‘limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbasxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o‘ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo‘ja domla xarakteri jonli va to‘laqonli qilib gavdalananadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo‘lgan dramaturgiya sohasida ham iste’dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko‘targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo‘lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og‘riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo‘ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta’sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Komediyada Dehqonboy, Hafiza va Qo‘ziyev kabi sofdir, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o‘jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o‘xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og‘riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo‘liga to‘siq bo‘layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo‘lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog‘liq. Komediyada zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari noplak illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni,adolatni targ‘ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo‘lishini ko‘rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga erishadi.



Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan,adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.



HOW TO INTEGRATE STEAM IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM

Sabirov Shuhrat,
teacher of school No. 2,
Bagat district, Khorezm region.
Phone: +998994329419

Annotation: In this thesis I explain why an integrated approach is useful, and how to integrate STEAM with your day to day teaching. The world is integrated, so teaching should be too. No learning takes place in a vacuum. Instead, students should always be using their knowledge of the world to connect ideas. This is especially true when it comes to STEAM subjects – science, technology, engineering, art and design and maths.

Key words: STEAM approach, science, technology, engineering and maths.

Most people understand how STEM (science, technology, engineering and maths) subjects are connected. But for students to develop STEM skills, we need to integrate these subjects with the arts – and vice versa. The arts is an umbrella term for things like dance, music, drama, movement, painting, drawing, crafting, sculpture, and design. And as we mentioned above, scientists, technology developers, engineers and mathematicians need to be creative to innovate. Artists also need to observe, hypothesise and experiment – which in many ways is similar to a scientific process.

There are lots of benefits to creating connections across STEAM subjects and content areas in your curriculum. For example: Our brains are wired to make connections. When we connect two pieces of information in our brain, we are much more likely to understand, remember, and be able to apply this knowledge.

So, combining subjects mimics real life and prepares the brain for a world in which knowledge is integrated.

How to integrate STEAM in your language classes

1. Connecting STEAM subjects

STEAM subjects should facilitate interdisciplinary learning and always go hand-in-hand. For example, if you’re teaching your learners about patterns in English, you could make connections between patterns in odd and even number sequences (maths) and patterns in sound waves (science). And you could bring in patterns in buildings (engineering), patterns used for coding (technology) and dance choreographies or abstract paintings (art). Find out how to plan a successful STEAM lesson.

2. Connecting STEAM and language

Learning objectives are a good starting point to develop STEAM connections. For example, when teaching the topic of animals and their habitats, there are lots of STEAM connections you can make. For example, you could ask students to build a habitat for an animal (engineering), decorate the habitat (art and design) and include what that animal needs to survive (science). You could then have students present their habitat creation to the rest of the class – practicing their English language presentation and speaking skills. Depending on their proficiency level, learners can also learn language skills used by a range of STEAM professions. Take a scientist, for example. These language skills include listening to others and negotiating, reading and interpreting text or data, writing down hypotheses, labelling designs, recording data, sharing explanations, communicating ideas and solutions, and publishing results.

3. Connecting STEAM and literature

You might decide to connect a STEAM challenge to a storybook you are reading in class. There are lots of books that develop creativity, thinking skills, critical thinking, and scientific thinking. For example, if you are reading The Very Hungry Caterpillar with your students, you can have them make the tiniest or biggest caterpillar they can out of different materials like bottle tops or egg cartons.

4. Connecting STEAM and Project-based learning

Project-based learning (PBL) helps learners identify a problem, generate other questions to research, think of solutions and present their ideas. And this process helps them make connections among different areas. Sounds a lot like STEAM, doesn’t it? STEAM is all about discovery and



problem solving. So, it's a great match for project-based learning.

References

1. Aho, A. V. (2012). Computation and computational thinking. *Computer Journal*, 55(7):832 – 835.
2. Antola Crowe, H., Brandes, K., Davison Avilés, B., Erickson, D. & Hall, D. (2013). Transdisciplinary teaching: Professionalism across cultures. *International Journal of Humanities and Social Science* 3(13).



**ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARINI O‘RGATISH**

Qurbanova Baxtigul Juraboyevna
Farg‘ona tumani XTB tasarrufidagi
62-umumi o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
tel: 90 405-34-16

Annotatsiya. Maqolada xalq og‘zaki ijodi va uning o‘ziga xos jihatlari, so‘z san’ati ekanligi va yozma adabiyotdan farqli jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar. Folklor, badiiy-estetik idrok, tafakkur, qadriyat, ma’naviyat, so‘z san’ati.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari ma’naviy qadriyatlar tizimining asoslaridan bo‘lib, xalqimizning uzoq asrlik o‘tmish tarixi, yashash tarzi, urf-odatlari, axloqiy qarashlari, tafakkuri, olamni badiiy-estetik idrok etishning o‘ziga xos shakli sifatida beqiyos qadr-qimmatga ega. Folklor asarlari mag‘zidagi hikmat har bir davrda yangidan anglanadi, zamon talablariga mos talqin topadi, xalqning ma’nana boyishiga xizmat qiladi. Xalqimizning mustaqillika erishgani va jahon hamjamiyatida munosib o‘rnini egalashi tarixiy voqyea sifatida folklorshunoslik sohasining ham yangi bosqichga chiqishiga imkon yaratdi.

Insoniyat tarixida so‘zlar yozuv tarzida ko‘rinishi dan oldinroq ularni eshitib ya’ni og‘zaki tarzda bilishgan deb ta’kidlash biroz noodatiy tuyulishi mumkin. Ko‘pchilik uchun so‘zlar haqiqatdan ham haligacha yozuv orqali emas balki og‘zaki yo‘l bilan tushuniladi, hattoki ba‘zilar so‘zlarni ko‘z o‘ngida ma’lum harflardan tashkil topganligi shaklida tasvirlashga ko‘nikishgan bo‘lsa ham so‘zlarni ko‘p hollarda eshitib yoki suhbat orqali tushunishadi. Bizning shaxsiy kechinmalarimizda biz har ikkala holatning ham ma’lum bir darajalariga to‘qnash kelamiz. Biz shaxsiy rivojimizda ayrim so‘zlarni og‘zaki tarzda o‘zlashtiramiz, holbuki biz bu so‘zlarni ularning qanday shaklga ega ekanligni tasavvur qilmasdan turib faqatgina bizga eshitilgan tovush yordamida qabul qilamiz. Bu ikki dunyo ya’ni og‘zaki va yozma shakllar bir qancha muhim va sezilarli farqlarga ega bo‘lishiga qaramasdan ularni alohida boshqa dunyo emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda zavq bilan o‘qilayotgan, maroq bilan aytilayotgan doston, ertak, qo‘sishq, maqol, topishmoq, afsona va rivoyat, askiya va latifa, loflar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining janrlari hisoblanadi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma’naviy boyliklarimiz butun o‘zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Folklor deganda ma’lum millatga mansub, xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan san’at namunalari: so‘zanalar, xalq kuylari, raqslar va boshqalar tushuniladi. Ammo folkloarning alohida sohasi bilan shug‘ul lanuvchi mutaxassis esa ko‘pincha folklor deganda o‘zi o‘rganuvchi sohani nazarda tutadi. Jumladan, tasviriy san’atni o‘rganadigan olim folklor deganda, naqsh san’atini nazarda tutadi. Xoreograf esa xalq raqsini, musiqa shunos xalq kuylarini, folklorshunos esa xalq og‘zaki ijodini nazarda tutib ish olib boradi.

“Folklor” inglizcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi quyidagicha: folk-xalq, lore-donishmandlik. Fanda bu so‘zning tor va keng terminalogik ma’nolari mavjud. Go‘zallik qonunlari asosida xalq tomonidan yaratilgan har qanday ijod mahsuli tushunilishi -terminning keng ma’nosidir. Bunda xalq san’ati, amaliy san’at, musiqa san’ati, raqs san’ati, kashtachilik kabi go‘zallik qonunlari asosida yaratilgan barcha ijod mahsuli tushuniladi. Atamaning tor ma’nosida esa faqat xalq og‘zaki ‘oetik ijodi, ya’ni xalq tomonidan yaratilgan og‘zaki badiiy so‘z san’ati tushuniladi. Bu atama birinchi marta 1846-yili ingliz olimi Uilyam Toms tomonidan ilmiy olamga olib kirilgan. O‘zbek folklorshunoslik ilmida esa, dastlab, atoqli olim Xodi Zarif tomonidan XX asrning 30-yillarda iste’molga kiritilgan. Folklojni, ya’ni og‘zaki badiiy so‘z san’atini o‘rganuvchi fan sifatida, birinchi navbatda, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan zinch bog‘lanadi. Shuningdek, folklorshunoslik, tarix, etnografiya, falsafa, ‘sixologiya, san’atshunoslik fan folklorshunoslik deb yuritiladi.

Ma’lumki, folklorda shu folklojni yaratgan xalqning urf-odati, turli an’analari, ruhiyati, fikrlash tarzi, falsafasi aks etadi. Shunga muvofiq folklojni etnografiya, ‘sixologiya, falsafa kabi qator fanlar ham o‘rganadi. Bunda har bir fan o‘z mundarija maydonidan kelib chiqib ish ko‘radi. Folklorshunoslikni folklorga so‘z san’ati sifatda qaraydi. Folklorshunoslik so‘z san’atini o‘rganuvchi fan sifatida, birinchi navbatda, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan zinch bog‘lanadi. Shuningdek, folklorshunoslik, tarix, etnografiya, falsafa, ‘sixologiya, san’atshunoslik



kabilar bilan ham aloqadordir.

Folklor ham, ma'lumki, adabiyot, og'zaki adabiyot, ya'ni so'z san'ati. Uning adabiyotning boshqa ko'rinishi-yozma adabiyot bilan umumiyligi bo'lgan tomonlarini ham yodda tutmoq lozim. Mana shu jihatdan qaraganda ular orasida quyidagi umumiyligini kuzatish mumkin:

- Har ikkisida ham so'z san'ati, tasvir vositasi so'zdir;
- Har ikkisida ham hayot va undagi voqealari-hodisalar tasvirlanadi;
- Voqealar ma'lum bir estetik 'rinsi'larga asoslangan holda tasvirlanadi;
- Hayot va uning lavhalari badiiy obrazlar orqali tasvirlanadi;
- Obraz va obrazlilik umumiyligi mavjud;
- Tasvir vositalari umumiyligi mavjud;
- Adabiy tur umumiyligi mavjud;
- Vazifa mushtaraqligi mavjud;
- ta'limiy, tarbiyaviy, estetik vazifalar umumiyyidir.

Xulosa qilib aytganda, folklorda shu folklorini yaratgan xalqning urf-odati, turli an'analari, ruhiyati, fikrlash tarzi, falsafasi aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. – B. 43-56.
2. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti (qadimgi davr folklori) / O'zbek folklori ocherklari. 1-tom. - T.: Fan, 1988. – B. 25-35. Toshkent: «Fan», 2011. – 304 b.



CHO'L PONNING MUNAQQIDLIK FAOLIYATI

Sardor Abdurahmonov

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Tel:90-344-47-95

Annotatsiya: XX asr adabiyotining yetuk shoir va yozuvchisi Cho'lpon nafaqat badiiy ijod, balki adabiyotshunoslik ilmida ham o'z so'ziga ega bo'lgan olimdir. Maqolada Cho'lponning adabiy tanqidiy faoliyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, adabiy jarayon, munaqqid

Cho'lpon yurt tinchligi, el ozodligi yo'lida o'limga tik boqqan haqiqiy millatparvar ijodkor shaxs sifatida adabiyot olamiga kirib keldi. Cho'lpon bu olamda nafaqat shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publisist bo'lish bilan birga mahoratli munaqqid, o'ziga xos qiyofali san'atshunos bo'lib yetishdi. U yozgan har bir adabiy tanqidiy maqolalar xalqning ma'naviyatini shakllantirishda, adabiy-estetik didini o'stirishda, yangi o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Ammo istibdod zamonida Cho'lpon ijodini o'rganish mavhum va tumanli tasavvur bilangina cheklandi. Cho'lpon o'zini professional munaqqid yoki muayyan akademik qoidalar asosida ish yurituvchi adabiyotshunos olim deb hisoblagan emas. Cho'lpon munaqqid sifatida, birinchi navbatda, adabiyot va san'atning amaliy masalalari bilan shug'ullangan, yanada aniqroq aytganda, ma'naviy uyg'onish va ma'daniy rivojlanish asosida adabiy jarayonda ko'ndalang bo'lgan dolzarb muammolarga javob topishga intilgan, shu tarzda adabiyotni o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan boyitishga, Sharq va G'arbning bebaho tajribasini yangi o'zbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan.

Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini tuzib, bibliografiyasini e'lon qilgan cho'lponshunos Normat Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, shoir 1914-1937-yillar mobaynida chop etgan adabiy tanqidiy maqolalarining soni 70 ga yaqindir. Shunga qaramay, Cho'lpon maqolalarining barchasi ilmiy-nazariy jihatdan puxta edi. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida Cho'lponning dastlabki tanqidiy asarlaridan biri - (Adabiyot nadur) nomli maqolasi e'lon qilinadi. Uni yozganda Cho'lpon 16 yoshda edi. Maqola shaklan ixcham bo'lsa-da, mazmuni g'oyat teranligi va chuqur saviyaga ega fikrlar qamrovi jihatdan adabiyotimiz maydoniga olov yoka oldi. Maqolada Cho'lpon, avvalo, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to'g'risida aniq va tiniq mulohaza yuritdi. Uning fikricha, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma'naviyatini ta'minlaydigan asosiy omildir. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1915-yil 6-fevral sonida chop etilgan "Muhtaram yozg'uchilarimizg'a" nomli maqolasida Cho'lpon o'zbek yozuvchilariga qarata murojat qiladi, millat odamlarining tanqid qilinadigan yomon illatlarini asliday qilib kitob betlariga ko'chirib yozish uchun ana shunday muhit vakillarining suhbatlarida, majlislarida bo'lib turish kerakligini ta'kidlab, "yozuvchig'a materiallarning eng asslari xalq orasidan olinur", degan fikrni ilgari suradi. Maqolada Cho'lpon ijodkorlarni hayotni chuqur o'rganishga da'vat etadi. Xalq turmushining turli qirralarini badiiy ifodalashda tanqidning zo'rayib, yoki bir yoqlama bo'lib ketishga qarshi chiqadi. Cho'lpon ma'rifatparvar Fitrat domla tashkil qilgan "Chig'atoy gurungi" to'garagining faol a'zosini sifatida bu adabiy tashkilot faoliyatini himoya qilib, ko'plab tanqidiy maqolalar e'lon qiladi. Ularda ijod vakillarini "chin adabiyot" uchun qayg'urishga, aynan shu yo'lda xizmat qilishga chaqiradi. Shunday ruhdagi maqolalaridan birida adabiyotning takomiliga katta e'tibor berib, bunga "adabiyotga kira olmagan narsalarni shafqatsiz suratda maydondan haydash va badiiy asar tilini soddalashtirish orqali erishilar", deb hisoblaydi. Cho'lponning "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 7-sonida "Ulug'hindi" nomli hind ma'rifatparvar yozuvchisi R. Tagor ijodiga bag'ishlab bosilgan maqolasi, mohiyat va e'tibori bilan zamonaviy jahon adabiyotidagi ilg'or tamoyillarni anglash va o'zbek adabiyotiga olib kirish masalasini munozara maydoniga olib chiqdi. Cho'lpon R. Tagordek zukko san'atkorlar tajribasidan kelib chiqib, yangi o'zbek adabiyotini yaratish muammosini yechishga harakat qiladi. Umuman, 20-yillarda yozilgan aksar maqolalarida ham bu muammoga qayta-qayta munosabat bildiradi. Cho'lpon adabiy tanqidda janriy rang-baranglikka intildi. Bu jihatdan uning taqriz janridagi kichik-kichik chiqishlari e'tibor qozondi. U bunday taqrizlarning aksariyatini o'zbek teatrda sahnalashtirilgan dramatik asarlarga bag'ishladi. 20-yillarning boshlarida Cho'lpon Fitratning "Chin sevish" va "Abo Muslim" dramalariga taqrizlar yozarkan, "Abo Muslim" haqida dadilroq fikr yuritadi: "Tomashabinga aralashguvchi qahramonlarning



ko‘pchiligi ham tarixning eng chuvalgan davridan olinib yozilg‘oni uchun tomoshaning so‘ngida uning natijasini to‘la ko‘rsatadurg‘on bir ko‘rinish orttirilg‘on bu ko‘rinish xiyla muvaffaqiyatlik tuzilg‘on”, deb yozadi. Ayni vaqtida asarda Fitratga xos “so‘z ustalig‘i”, “xiyla kuchlik”ligi, bu jihatdan tomosha katta bir adabiy ahamiyatga molik ekanini ta’kidlaydi. Cho‘lpon Fitratning “Hind ixtitolchilari” sahna asarini yozib tugatganligidan xabardorligini ma’lum qilarkan, uni sahnada ko‘rishni orzu qiladi, “sahnamiz jonlana, yuksala...”, deb o‘z hayajonini, ishonchini yakunlaydi. Cho‘lponning hamma maqolalari ham bir xil saviyada yozilmagan, albatta. Ular ichida bugungi kun uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotganlari ham bor. Shunday bo‘lsada, ularda o‘zbek xalqining adabiyoti va san’atini jahoning ilg‘or fikrlilari darajasiga ko‘tarish, ularning qalbiga sof millatparvarlik tushunchasini singdirshdek ulug‘ g‘oya o‘z ifodasini topgan. Haqiqiy tanqidchi o‘z pozitsiyasidan bir on ham chetga chiqmasdan, noholislikka yo‘l qo‘ymay, hamisha haqqoniy va halol fikr yuritmog‘i lozim. Cho‘lponning 20-30-yillarda yozilgan maqolalarida aynan mana shu ikki jihat yaqqol sezilib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Abulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon adabiy jarayonning sinchkov kuzatuvchisi sifatida, yangi o‘zbek adabiyotining o‘z o‘rnida bartaraf etilishi zarur bo‘lgan kattyu kichik muammolariga birday “jon tortgan” va bu jarayonga ro‘y-rost va dalilli fikrlar bildira olgan. Shoirona qalb hamda didga ega mahoratlari munaqqid o‘zining tanqidiy qarashlari bilan adabiyotshunoslik ilmini boyitgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddinov O. “Cho‘lpon”. Tashkent, Cho‘lpon, 1991.
2. Sharafiddinov O. “Cho‘lponni anglash”. Tashkent, Xazina, 1994.



BADIY TIMSOLLAR VA ULARNING TASNIFI

Asqarova Dilfuz

Farg‘ona shahar 29-maktab

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Tel:91-328-59-05

E-mail:dilfuzasqarova@gmail.com

Annotatsiya: Maqlada adabiyot fanini o‘qitish jarayonida badiiy tahlildan foydalanish, badiiy timsollar va ularning tasnifi bo‘yicha fikr-mulohazalar,tahlillar yoritilgan

Kalit so‘zlar: badiiy tahlil, ta’lim-tarbiya, asar, estetika

Obraz–timsol tushunchasining keng va torma’nolari mavjud. Keng ma’nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatса, tor ma’noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siyosimi ifodaydi. Bu o‘rinda timsol tushunchasining ko‘p qo‘llaniladigan tor ma’nosи haqida fikr bildiramiz. Keng ma’noda ishlataladigan badiiy obraz tushunchasi haiqda to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak bu tuyg‘u, ijodkorning fikri, hissiyat va kechinmalarni singdiriladigan tasvirini badiiy timsol yoki obraz deyiladi.

Yozuvchi hayotni badiiy timsollar orqali tasvirlaydi. Shuning uchun ham biror badiiy asar o‘qiganimizda unda aks ettirilgan voqealik ongimizda shu asarda tasvirlangan kishilarning obrazlari qiyofasida muhurlanib qoladi. Misol qilib oladigan bo‘lsak, “Ravshan” dostonini o‘qiganmiz. Bundagi obrazlar natijasi o‘larоq Ravshan, Zulkumor, Hasanxon, Aynoq, Jaynoq, Tersaklarning mahorati bilan chizilgan timsollari, shervon bozori, Zulkumorga qarashli bog‘ning ajoyib-g‘aroyib manzaralari xotiramizda bir umrga saqlanib qolgan.

Badiiy adabiyotda inson timsoli u yashayotgan jamiyat va undagi jarayonlar bilan uni o‘rab olgan tabiat, ijtimoiy muhit narsa-hodisalar bilan bирgalikda chambarchas bog‘lanadi. Inson hamisha shular qurshovida bo‘ladi. Lekin bularning hammasi inson obrazini yo individuallashtiruvchi, yo umumlashtiruvchi, yoki unga hissiy ta’sirchanlik bag‘ishlovchi yordamchi vositadir. Narsa va hodisalar tasviri o‘z-o‘zicha mustaqil badiiy qiyamatga ega bo‘lmaydi, ular insonning yorqinroq ko‘rsatish, uning tabiatini teranroq ochish uchun kerak. Inson yolg‘iz o‘zi mavjud bo‘la olmaydi. Odam odamday yashashi va o‘z insonligini namoyon etishi uchun juda ko‘p narsalar kerak bo‘ladi. Badiiy adabiyotda inson bilan bir qatorda, narsa-hodisalar, muhit tasviri ham shunchalik kerak.

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan surati badiiy obraz deyiladi. Obrazlar bosh va epizodik qahramonlarga bo‘linadi. Asarning boshidan oxirigacha qatnashib, ta’sirda muhim o‘rin tutuvchi ishtirokchisi bosh qahramon deyilsa, asarning bir-ikki o‘rinidagina qatnashib, keyin tushib qoladigan ishtirokchilar epizodlik qahramonlar deyiladi. “Ravshan” dostonidagi Ravshan, Zulkumor, Hasanxonlar bosh timsollar bo‘lsa, shirlonlik kampir eng, aka-ukalar, Oqqiz, uning Mastar onasi epizodlik obrazlardir.

Asar timsollarining eng maqbul tahlili ustoz va shogird uchun ham muammoli tahlildir. Bu usulda o‘quvchidar asar matniga erkin yondashadilar, har bir timsol ruhiyatga, yurak qatlamlariga chuqur kirib boradilar, ezgu xatti-harakatlarga ham, nojoiz-noaxloqiy, salbiy xislatlarga ham aslo befarq bo‘la olmaydilar. Agar o‘qituvchi ish faoliyatini unumli, to‘g‘ri va oqilona, tejamkorlik bilan uyushtira olsa, qahramonlar tahliliga ham, bahs-munozaraga ham, yakuniy xulosalarga ham imkon topa oladi. Vaqt bemalol bo‘lgan chog‘da o‘quvchi o‘z tengdosh-sinfoshlar va ustozlari bilan ochiqchasiga, emin-erkin bahs-munozaraga kirisha oladi. Bunday paytda ancha ilgariroq o‘rganilgan bir necha asarning yetakchi timsollar tahlilida muammoli vaziyatlar muhitini yaratish mumkin.

Dars mashg‘uloti “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz” romanlari asosida bahs-munozara tarzida bo‘ladi. Tahlil jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda etishga undovchi savollar beriladi.

Savol: Yuqoridaqи romanlar qahramonlari Kumushbibi, Ra’no jabrdida qiz Gulnor esa ma’suma dugonamizday bo‘lib qolgan Zebiniso o‘z davrida yashab o‘tgan tengdoshlarimiz bo‘lib, yaqin o‘tmishda yashagan taqdirdosh, darddosh qizlardir. Ularning bir-biridan farqi nimada? Ularni ikki tomchi suvdek bir xil deyish mumkinmi?

O‘quvchi: Ularni aynan bir xil toifadagi xotin-qizlar deyish noto‘g‘ri. Yaqin o‘tmishimizda



yashagan bu to‘rt qahramonning oila, ishq- muhabbat, shaxsiy turmushlaridagi fojiali nuqtalar o‘xshash Kumush o‘z kundoshi Zaynabning, Gulnoz Mirzakarimboyning tanqid, erkatoy qizi Nurining, bahordek musaffo, soddadil 15 yoshli Zebiniso esa Poshshaxonning og‘usi-kuchalasi oqibatida orzu-niyatlari barbod bo‘ladi. Ra’nogina ularga o‘xshamaydi. Savol: O‘sha paytda johil va mutaassib otalar hissiz-hayosiz mingboshchilar, olchoq va munofiq boyu-boywachchalarining yuzidagi niqobini adolat shamshiri bilan yirtib tashlashi mumkinmidi? O‘quvchi: To‘g‘ri Zebinisoning otasi Razzoq so‘qi Cho‘lpon aytmoqchi “ko‘rgazmaga qo‘yilgan antiqa bir mahluqot” lardan johil va qo‘rs, badfe'l va o‘ta mutaasib kishi. Lekin Ra’noning otasi Solih mahdum unday emas, mansabdor, o‘qimishli domla, biroq mahdum ta’magir, juda xasis, tilyog‘lamachi; Xudoyorga quda bo‘lishni yolg‘iz qizining muhabbatidan ustun qo‘yadi. Menimcha, bu otalar o‘z qizlarining fojiali qismati uchun gunohkor padarlardir. Balki har qanday gunohkor bo‘lishmasin, ular zamona zaylidan, zo‘ravonlarning zug‘umi bilan shu kuyga tushishgan, boshi berk ko‘chaga kirishgan, demak o‘rinli bo‘lar. O‘quvchi: Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilaman. Otalarning gunohlari, shubhasiz, zalvorli, o‘z qizlarini “zamona ajdaholari” ravo ko‘rishagn, adashishgan. Ehtimol, shu yo‘sinda nochor oilalarni qizlari badaliga tiklab olishni o‘ylagandir? Lekin men Ra’no Kumush, Zaynabga bir xil tosh-tarozi qo‘yish mumkin emas deb hisoblayman. Toptalgan muhabbat, xazon bo‘lgan sevgi, nobop muhit, nochor sharoitlar hatto mutaassib, johil va nodon otalar bo‘lsa bordir. Ular kabilar hozir ham uchrab tradi. Bu jihatdan yuqoridagi romanlar sujetida bir oz o‘xhashlik bor albatta.

Shunday qilib yuqorida qayd etilgan romanlarning yetakchi timsollari tahlili jarayonida o‘quvchilarning har bir qahramon taqdiriga qiziqishi, mustaqil ravishda tahlilga nuqtai nazarlarini bildirishga ehtiyoj sezishi, ijodkorlikka intilishi orta boradi. Shuningdek, ular badiiy asar timsollarini keng qamrovli tahlil qilishga, mushohada yuritishga, shahsiy fikrlarini asoslay olishga odatlana boradilar.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. Qozoqboy Y., Valijon Q. va boshqalar – “Adabiyot” Toshkent: 2006, 3-5-betlar.
2. Boltaboev H. va boshqalar – Adabiyot “T”: 2004, 3-8 betlar
3. Q. Yuldashev, B. Qosimov - Adabiyot. T: Yozuvchi 2000, 43-46 bet



XALQ OG‘ZAKI IJODI-BEBAHO BOYLIK

Yoqutxon Rahmonova
Sherqulova Shoiraxon

O’zbekiston tumanı 9-,57-maktab
ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari
Tel:99-978-43-04

Annotatsiya: maqolada xalq og‘zaki ijodi va uning bebaaho namunalari, o‘quvchining madaniyati va ongini rivojlanishida xal o‘zaki ijodining o‘rnini xususida mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, qahramonlik, yovuzlik, yaxshilik, an’ana

Xalq og‘izaki ijodining tarixiy ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Uzoq o’tmishda O’rta Osiyo hududida xorazimiylar, sug’diyilar massagetlar va boshqa turli qabila va elatlar yashaganlar mana shu qabila va elatlar xozirgi O’rta Osiyo xalqlarning eng qadimgi ota-bobolaridir. Ular yaratib qoldirgan adabiy yodgorliklar hozirgi O’rta Osiyo xalqlarning umumiy merosidir. Og‘zaki adabiyot yodgorliklar tarix kitoblar ilmiy asoslar va boshqa manbalar orqali bizga qadar saqlanib qolgan. Juda qadim zamonlarda yaratilgan asarlar orasida qahramonlik dostonlari jumladan, tarixiy afsonalar muhim o’rin egallaydi. Chunki ularning ko’pchiligi tarixiy voqealar zaminida yaratilgan. Xalq og‘izaki ijodi tarixga yo’ldosh bo’lib kelgan. Qahramonlik dostonlarida inson va adolatning mard kurashchilari otashin vatanparvar, xalq sadoqatli har qanday yovuzlikka qarshi mardona kurashga tayyor bo’lgan qahramonlar yaratilgan Eron shohlari bosqinchiligiga qarshi mardona kurashib elini halokatdan qutqarib qolgan To’maris shular jumlasidandir.

Mashhur xalq qahromonlik dostoni “Alpomish” ning kurtaklari ham qadim zamonlarda vujudga keldi, asrlar davomida xalq shoiralari tomonidan kuylanib sayqallanib boradi. “Alpomish” dostoni o’zbek folklorining shoh asarlaridan biriga aylandi. Unda qahramonlik, mardlik, oila mustahkamligi va urug’ birligi baralla kuylanadi. Dostonni o’qish orqali sarguzashtli voqealar xalqimizning qahramonlik haqidagi qarashlariga, mardlik tuyg’usiga o’z vatanini sevish va qadrlash g’oyalariga guvoh bo’lamiz. Darvoqe, dostonlar zamonlar o’tishi bilan ular yangi-yangi mavzular va go’yoviy mazmun bilan boyib boradi. Dostonlar xalq tomonidan yaratilgan, ijodkor xalq ular orqali o’z maqsadlarini, orzu istaklarini, his-tuyg’ularini ifodalaydi nasildan nasilga, avloddan avlodga o’tishi natijasida xalq mulkiga aylanadi. Shu bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin tayyorladi. Odamlar badiiy asarlarni dastlab og‘zaki shaklda yaratgan va ular og‘izdan-og‘izga ko’chib yurgan. Bu asarlar ulkan ta’sirga ega bo’lgani uchun ham xalqimiz xotirasida abadiy muhrlanib bizlargacha yetib kelgan. Shu sababdan xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimgi shakli deyiladi. O’zbeklar dunyo xalqlari orasida ko’p doston yaratgani bilan ajralib turadigan millatdir. Oimlar XIX asr oxiridan XX asrning ikkinchi yarimiga qadar o’zbek baxshilari tomonidan kuylangan yuz elikka yaqin doston borligini aniqlagan va variantlari bilan qo’shib hisoblaganda ulardan to’rt yustacha doston yozib olingan. Folklorchi olimlarning aytishlaricha, “Go’ro’g’li” turkumdagи dostonlar yuzdan oshadi, birgina “Alpomish”ning qirqdan ortiq nusxasi borligini esa bilamiz. “Doston” forscha so’z bo’lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta’rif ma’nolarini bildiradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki xalq ijodkoridir. Faqat moddiy boyliklarninggina emas, balki ma’naviy boyliklarning ham yagona va bitmas-tuganmas manbai, yaratuvchisi xalqidir.

Xalq og‘zaki ijodiga uning turli sohadagi kop asrlik tajribasi bilimi his-tuyg’ulari, orzu-umidlari aks etadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini bilmay turib mehnatkash xalqning haqiqiy tarixni bilish mumkin emas. Xalq yaratgan asarlarning chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiyligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini kelajakka bo’lgan ishonchini haqiqat, odolat tinchlik va baxt xaqidagi qarashlari yaqqol aks etadi xalq yaratgan asarlari jabr-zulmga ijtimoyi haqchilikka qarshi mardona kurash, vatanparvarlik, vafo va sadoqat g’oyalari bilan elga manzurdir.

Xalq dostonlari kop asrlar davomida baxshilar tamonidan kuylanib, xalqni mardlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonlar bizni xalqning tarixi bilan, uning turmushi va orzu-tilaklarni bilan tanishtiradi. Unda surilgan g’oyalari o’z ahamiyati bilan hozirgi davrda ham qimmatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. O’qituvchi 2018-yil
2. Xalq og‘zaki ijodidan. Toshkent. G’. G’ulom. 1998-yil
3. “Alpomish” dostoni. Toshkent 2020-yil
4. Adabiy tur va janrlar. O’qituvchi 1995-yil



ADABIY JARAYON VA ADABIY TANQID

Osiyoxon Hoshimova Yolqinjon qizi

FarDU filoziya fakulteti
o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiy tanqid va adabiy jarayon munosabati, adabiy tanqid tarixi va uning mohiyati, adabiy jarayon bilan uzviy aloqasi, shu bilan birga, tanqidchilik talanti haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy jarayon, adabiy tanqid, munaqqid, tanqidchilik, tanqidchilik talanti

Adabiy tanqid – har bir davrning adabiy hodisalari, yozuvchilari ijodi haqida o‘z vaqtida muhokama yuritadi. Davr bilan hamnafas bo‘lib, adabiy jarayonga faol aralashadi, ilg‘or ijtimoiy tamoyillar va g‘oyalarning adabiyotga kirishiga madad beradi; kitobxon ommasining badiiy saviyasi yuksalishiga oziq beradi. Eng asosiysi, ijtimoiy fikr (bugungi kunda mustaqillikning milliy mafkurasi) ning faollahuviga va rivojiga, uning qalblarda o‘sishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Adabiy tanqid ilm va san’atning o‘zaro aloqasining birligidan tashkil topgan “insonshunoslik”dir. Bu haqda V.G.Belinskiy “Har ikkisining mazmuni bir, farqi faqat shakldadir”, – degan edi. Demak, tanqidiy asar – san’at asari bo‘lishi, unda ilmiylik, ta’sirchanlik bo‘lishi shartdir; u, ayni paytda hayotni badiiy o‘zlashtirish jarayonini o‘rganuvchi va shu jarayon oqimiga ta’sir ko‘rsatuvchi ilmdir. Adabiy tanqid faqatgina nazariyani amaliyotga bog‘lab qo‘yish bilan cheklanmaydi. Balki nazariya sohasini kengaytiradi, tayyor badiiy “mahsulot” dan yangi, hayotiy, nazariy qoidalar yaratadi, san’atkorlarning g‘oyaviy fikr doirasini kengaytiradi, mahoratlarini oshiradi. U adabiyotdan o‘rganadi va adabiyotga yangiliklar kiritadi, estetikani boyitadi¹.

Darhaqiqat, adabiy tanqid hayotning badiiy o‘zlashtirish jarayonini o‘rganuvchi va shu jarayonda faol ishtirok etuvchi, undagi oqimlarga ta’sir ko‘rsatuvchi ilm, o‘ziga xos ijod turidir. Bu esa uning adabiy jarayonga ta’sir etuvchi kuchi borligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda adabiy jarayonda tanqidning roli haqida V.G.Belinskiyning fikri e’tiborga molik: “Adabiyot va san’at tanqid bilan qo‘l ushslashib boradi va bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi”². Shubhasiz, biron bir xalq va muayyan bir davrning adabiy-tarixiy jarayonini adabiy tanqidning ishtirokisiz tasavvur etish mumkin emas. Hatto adabiy tanqidda yangi fikr aytish, yangi xulosalar chiqarish uchun unga badiiy asarlar asos bo‘lsa-da, ba’zi xalqlarda ayrim tarixiy davrlarda adabiy tanqidning yutuqlari adabiyot va san’atning yutuqlaridan ham salmoqliroq bo‘lib, umumiy jarayondan bir qadar ilgarilagan, shu bilan birga, adabiyot va san’atning yangi-yangi yutuqlari uchun nazariy zamin hozirlashga xizmat qilgan. L.Qayumov: “Ijtimoiy hayot va adabiy jarayonning shakllanishida adabiy tanqidning tutadigan mavqeyi – uning insoniylik pozitsiyasi barqaror xususiyatlardan hisoblanadi. Tanqid muhokamalari, xulosalari, ijtimoiy ongga, adabiy taraqqiyotga muayyan shaklda, muayyan yo‘nalishda hamisha ta’sir o‘tkazadi. Bunga eng qadimgi va eng yangi tarixdan, o‘tmishdan va bugundan istagancha misollar keltirish mumkin. Basharti tarixda bir qator adabiy yodgorliklar tanqid tufayli abadiy yashab qoldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”³.

Adabiy jarayondagi tanqidning o‘rnini nafaqat hozirgi kunda, balki o‘tmishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. U faqatgina badiiy ijod turi bo‘libgina qolmay, insonlarga ruhiy intellektual ta’sir ko‘rsatishning muhim bir tarmog‘i desak, hech bir mubolag‘a emas. Bir so‘z bilan aytganda, adabiy tanqid adabiy jarayondagi yutuq va kamchiliklarini yaqqol ko‘rsatib beradigan ko‘zgudir.

Biz tanqidchilik kasbi haqida so‘z ochadigan bo‘lsak, u haqda jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham talaygina fikrlar bor. Bu kasb anchagina tajriba, bilim, ayricha mas’uliyat hamda juda katta mehnatni talab qiladi. Jumladan, inson hayotidan, real voqelikdan, fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar silsilasidan nimalarnidir izlab topib, kashfetib, ularni nimalargadir ulab, “payvandlab”, o‘ziga xos yangi olam – obrazlar olami, badiiy tiplar, xarakterlar olamini yaratgan va shu dam orqali davr ruhini, zamon taraqqiyoti mohiyatini yoritgan yozuvchi ong-u tafakkurimizni o‘zgartirishga, bebaaho zavq-shavq, ma’naviy qudrat berishga qodirdir. Munaqqid-chi? U qanday bo‘lmog‘i

1 Umuruv H.Adabiyot qoidalari/Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. –T.: “O‘qituvchi”, 2013, 7-8-betlar.

2 Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.: 1987, 78-bet.

3 Qayumov L.Adabiy tanqid va adabiy jarayon// “Sharq yulduzi”, 1972, 149-bet.



lozim? U yozuvchi yaratgan asarni o‘quvchilarga targ‘ib qilish bilangina shug‘ullanadimi? O‘zi biror yangilik yaratishga qodir emasmi? Yoxud badiiy asarlar mazmunini sharhlab, izohlab berishdan nariga o‘tolmaydimi? Ilmiy-estetik kamolot sari dadil borayotgan tanqidchiligidimiz qo‘lga kiritayotgan salmoqli muvaffaqiyatlar ham, gohida yo‘l qo‘yayotgan kamchiliklar ham tabiiy ravishda mana shunday savollarni keltirib chiqaradi. Munaqqidlar esa ularga halol, haqqoniy, chuqur tahlilga boy asarlari orqali javob berishlari lozim. Ozod Sharafiddinov bu haqda shunday xulosaga keladi: “Tanqidchi emotsiyonal tuyg‘ularga boy odam bo‘lmasa, u san’atning go‘zalligini tushuna olmaydi. Unday odam uchun tom ma’nodagi san’at asarining oddiy gazeta xabaridan farqi qolmaydi. Bu esa, san’at asarini bir tomonlama tushunishga, uni faqat g‘oyalar yig‘indisidangina iborat narsa deb talqin qilishga, san’atni siyosatga yugurdak qilib qo‘yishga, tanqidchini esa asarda tasvirlangan voqealar va xarakterlarni “yaxshi yoxud yomon” baholovchi qoziga aylantirib qo‘yishga sabab bo‘ladi ”. V.G.Belinskiy: “Tanqidchilik talanti kam uchraydi, tanqidchining yo‘li qaltis va xatarli yo‘ldir”. Albatta, tanqidchi bo‘lish uchun istedod, talant kerak. Mana shunday murakkab yo‘lni tanlab adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan va qoldirgan asarlari bilan hozirgi o‘zbek adabiyoti tanqidchiligidagi muhim rol o‘ynayotgan munaqqidlarimiz anchagini: Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘sishjonov, Ibrohim G‘afuruv, Umarali Normatov, Baxtiyor Nazarov, Salohiddin Mamajonov, Norboy Xudoyberganov, Ibrohim Haqqul, Najmiddin Komilov, Suvon Meliyev, Abdug‘afur Rasulov va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, munaqqidning ijodkor sifatidagi o‘ziga xosligi shundaki, xoh to‘rt satr she’rmi, xoh roman yoki dramami, badiiy asarning san’at namunasi sifatidagi tabiatini , go‘zallik mohiyatini ochib beradi.Unda , avvalo,mustaqil munosabat ustun bo‘lmog‘i lozim. Agar mustaqil munosabat bo‘lmasa, munaqqidning “men”i, qiyofasi bo‘lmaydi. Qisqasi, tanqid bilan shug‘ullanadigan odam bilimli bo‘lishi, did-u saviyasi, o‘qib uqqanidan zavq ola bilishi, o‘ziga yuqqanini o‘zgaga ham yuqtira oladigan ta’sir quvvatiga ehtirosli lafzi, ravon va savodli xati, shuningdek, har bir hodisaga o‘z nuqta‘i nazaridan qaray oladigan qobiliyati bo‘lmog‘i darkor. Shundagina u o‘z hunarining mukammal sohibi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umuruv H.Adabiyot qoidalari/Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. –T.: “O‘qituvchi”, 2013, 7-8-betlar.
2. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.: 1987, 78-bet.
3. Qayumov L.Adabiy tanqid va adabiy jarayon// “Sharq yulduzi”, 1972, 149-bet.
4. Nazarov B.,Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh.O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. –T.:Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2012,26-27-betlar.
5. Sharafiddinov O.Ijodni anglash baxti. –T.: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati, 2004, 635-bet.



ABDULLA QAHHORNING HIKOYA YARATISH MAHORATI.

Mirzagaliyeva Umidaxon Baxtiyor qizi
FDU filologiya fakulteti adabiyotshunoslik
kafedrasi 1-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi va unda yozuvchining o’ziga xos mahorati, individualligi haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, epik tur, didaktika, nosirlar, realistik hikoya, xalq og‘zaki ijodi, badiiy unsur.

Abdulla Qahhor o‘zbek realistik hikoyachiligining asoschilaridan biri bo‘lib, adabiyotimizda bu janrning shakllanishi va o‘sishi uning nomi bilan chambarchas bog‘liqidir. Uning “Bemor”, “Anor”, “Millatchilar”, “Tomoshabog”, “O‘g‘ri”, “Maston”, “Qanotsiz chittak”, “San’atkor”, “Jonfig‘on”, “Yillar”, “Adabiyot muallimi” kabi hikoyalari o‘zbek adabiyotida hikoya janrining sezilarli darajada taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatgan. “Abdulla Qahhor hikoyalarni mazmuni va janr xususiyatlari ko‘ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Bularning bir guruhini o‘tmish haqidagi hikoyalar tashkil qilsa, ikkinchi guruh hikoyalarning bosh qahramonlari zamondoshlarimizdir¹. Yozuvchini hikoyalarni o‘qir ekanmiz o‘z zamondoshining real tasvirini guvohi bo‘lamiz.

A.Qahhorning mahorati shundaki, hayot haqiqatini badiiy libosga burkab shu ma’noda badiiylik mezonlariga mos asar yarata oladi. Abdulla Qahhor asarlariga takrorlanmas rang va ohang bag‘ishlagan qudrat hayotdir. Yozuvchi umri davomida dildan o‘tkazgan o‘ylari, yoshlikda ko‘rgan – kechirganlari, hayotini chulg‘agan fikrlarini umumlashtirib badiiy shaklga soldi. “Badiiy adabiyotning asosida, shubhasiz, inson ma’naviyati bilan bog‘liq muammolarning badiiy ifodasi turadi. Shu boisdan ham hech bir ijodkor yo‘qli, o‘z asarida bu masalani chetlab o‘tgan bo‘lsin. A.Qahhor ijodi, jumladan, hikoyalari yuzasidan ham shu fikrni aytish mumkin”². Haqiqatan ham, Sharq mentalitetiga ko‘ra, badiiy adabiyot insonlarga estetik zavq berishdan tashqari ma’naviy ozuqa va ta‘lim-tarbiya ham berishi azaldan ma’lum. Bunday holat inson ma’naviyatiga jiddiy e’tibor bergen ijodkor A.Qahhor ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining rivojida Abdulla Qahhorning hissasi nihoyatda katta. “Abdulla Qahhor o‘zbek hikoyachiligining zamonaviy jahon hikoyachiliği darajasiga ko‘tardi va o‘zbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi. Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki ularni jahon navalistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo‘yish mumkin”³ deb yozgan edi rus tanqidchisi Semerovna.

Abdulla Qahhorning izchil realistik uslubda yozilgan hikoyalarining ko‘pchiligi urush yillarida va urushdan keyingi davrda yaratilgan. Bular “Ko‘k konvert”, “Qizil konvert”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Xotinlar”, “Asror bobo”, “Beshik”, “Mahalla”, “Nurli cho‘qqilar” kabilardir. Albatta, ularning hammasi ham bir xil darajada badiiy yuksak emas. Ularning ichida mazmunan yetuk bo‘limgani ham, uncha pishiq ishlanmaganlari ham bor. Lekin shu bilan birga, hech shubhasiz, adabiyotimizning oltin fondidan o‘rin oladiganlari bisyor. Ayniqsa, “Ming bir jon” va “Asror bobo” hikoyalariga fikrimiz dalilidir. «Ming bir jon» - insonning hayotga muhabbatini, umuman, hayotning qudratini, inson irodasini ulug‘laydigan hikoya. Bu hikoya noumid odamlarning ko‘nglida umid chirog‘ini yoqadi, ularni yashash uchun kurashga chorlaydi, umr yo‘lidagi har qanday, g‘ovlarni sabot va bardosh bilan yengishga o‘rgatadi. Hikoyani o‘qir ekanmiz, Mastura obrazi misolida chinakam o‘zbek ayolining jasorati, hayotga bo‘lgan shijoati, bir insonning hayotga bo‘lgan muhabbati, so‘nmas irodasi timsoli desak adashmagan bo‘lamiz. Masturaning turmush o‘rtog‘ining o‘z ayoliga bo‘lgan vafodorligini, u bilan besh yil mobaynida bitta shifoxonada kasallar orasida sog‘ bo‘lsada, ayoli uchun yashagan bir insonni ko‘rish mumkin. U umrining oxirigacha o‘z ayoliga sadoqat bila sobit turdi va, albatta, farovonlikka erishishdi. Masturaning ruhiyati har vaqt hayotga bo‘lgan tashnalik, kamtarlik sezilib turadi. Abdulla

1 Normatov U.Ustoz ibrati-T: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti ,2007-B 18-bet

2 Hotam Umurov Adabiyotshunislik nazariyasi A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti 2004 129-bet.

3 H.Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi A. Qodiriy nomidagi „Xalq merosi“ nashriyoti 2004 28-bet.



Qahhorning mahorati shundaki, Mastura tasvirida o‘zbek ayollarining, hayotga bo‘lgan sabr-toqatliligin, hayotga bo‘lgan mehr-muhabbatini, har qanday sharoitda ham susaymagaanligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni o‘zbek ayollarining ma’naviy dunyosini, insoniy xislatlarini ,axloqiy pokligini, ruhiy go‘zalligini ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratgan.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, adibning “Dahshat”, “O‘g‘ri” hikoyalarida insonga achinish, mehr-shavqat tuyg‘usidan mahrum kimsalarning bechora kishilarini xo‘rlashdan cheksiz lazzatlanishi betakror manzaralarda, ta’sirchan detallarida ko‘rsatiladi. Ayniqsa, “Dahshat” hikoyasida Unsinning qabriston oldiga borgan tasviri, uning ruhiyatini, qabristondan qaytganda undagi bo‘lgan ruhiy kechinmalarni kitobxon hikoyani o‘qiganda his eta oladi va go‘yoki, o‘sha muhitga o‘zini xuddiki tushib qolgandek o‘laydi. Abdulla Qahhor hikoyalarida har bir obrazlarning detallari uning ruhiyatini oolib berishga xizmat qiladi. Yuqoridagi hikoyalarni mutolaa qilish jarayoni hamisha o‘quvchini mahzun qilib qo‘yadi. Chunki ularda insoniy munosabatlar murakkabligi gavdalantiriladi. Ammo yozuvchi manman kimsalarga qahr-g‘azabini ham, kambag‘al bechoralarga achinish tuyg‘usini ham oshkora izhor qilmaydi. Insondagi kechayotgan ruhiy kechinmalarini go‘yoki, mavhum, goho oshkora tasvirlaydi. U voqelikni odamlar munosabatidagi ziddiyatni xolis turib gavdalantiradi. Bechora odamlarga achinish ularga mehr-muruvvat ko‘rsatish, qo‘lidan kelgancha ko‘maklashish har bir inson uchun sharaf sanaladi. Abdulla Qahhor ulug‘ ijodkorlar ilgari surgan insonparvarlik g‘oyalariga mos betakror asarlar yaratdi va o‘zbek adabiyotida o‘zining mohir hikoyanavisligi to‘laligicha namoyon eta bildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI;

1. E.Xudoyberdiyev “ Adabiyotshunoslikka kirish”
2. H. Umurov “Adabiyor nazariyasi” Toshkent, “Merius” 2004.




**QOZOQ ADABIYOTINING YETUK NAMOYANDASI ABAY QO'NONBOYEV
HAYOT YO'LI VA UNING "NASIHATLAR" ASARINI O'RGANISH BO'YICHA
USLUBIY TAVSIYALAR**

Sobirova Dilorom Isoqovna
Navoiy viloyati Nurota tumani
27-umumta`lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: adabiyot darslarida jahon adabiyoti vakillari ijodini o`rganish, o`quvchilarni birdamlikka chorlash, do`stlik, sadoqat tuyg`ularini shakllantirishda “Nasihatlar” asarining o`rni va ushbu mavzuni o`quvchilarga o`rgatish usullari ushbu uslubiy tavsiyada aks etgan. **Kalit so`zlar:** xalqni ilm-ma`rifatga, insoniylikka, halollikka, sevgi-sadoqatga, muhabbatga da`vat etish, birdamlik, nasihatlar, tarjimalar, dostonlar....

Adabiyot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar vositasida o`quvchilarni hurfikrli, sog`lom dunyoqarashli, vatanparvar, elim deb, yurtim deb yonib yashovchi komil insonlar qilib tarbiyalash bugun oldimizda turgan muhim vazifadir. Bu vazifani bajarishda badiiy asarlarning o`rni juda katta. Abay qalami bilan bitilgan badiiyat ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Abay – Ibrohim Qo`nonboyev – XIX asrning ikkinchi yarmida yashab, ijod etgan qozoq she`riyatining mash`ali, bastakor, faylasuf va qozoq yozma adabiyotini asoschisi, ma`rifatparvar shoiridir. U el boshqarish bilan birga badiiy ijod bilan qattiq shug`ullandi, o`z bilimini tinmay oshirib bordi. Qozoq urug`larining o`zaro ichki nizolari avj olgan bir paytda Abay o`z asarlarida ularni do`stlikka, inoqlikka, birodarlikka undaydi, ilm-ma`rifat olishga da`vat etadi. Bunga shoirning “Mening elim – qozog`im”, “Ilm topmay maqtanma”, “Yoshlikda ilm deb o`yladim”, “Boylar yurar molin ardoqlab”, “Internatda o`qyidi” kabi asarlar yorqin misol bo`ladi. Abaydan 300 ga yaqin she`riy asar, “Iskandar”, “Mas`ud”, “Azim hikoyasi”, “Vadim” kabi dostonlar yetib kelgan. Uning asarlaridan xalqni ilm-ma`rifatga, insoniylikka, halollikka, sevgi-sadoqatga, muhabbatga da`vat etish g`oyalari asosiy o`rin egallagan. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari asosida Abay tomonidan bitilgan “Tatyana qirdagi qo`shig`i” degan turkum she`rlari qozoq adabiyotining eng yaxshi namunalaridan biri bo`lib qoldi. Uning she`riyatida muhabbatsiz, do`stiksiz hayot bo`lmaydi, degan g`oya ilgari surilgan.



Muxtasar qilib aytganda, Abay qozoq adabiyoti va qozoq tiliga asos soldi. Shoirning she`r-u dostonlari, nasriy asarlar, tarjimalari qozoq xalqining milliy-ma`naviy iftixori bo`lib qoladi. Abay ijodi turkiy tillarda so`zlashuvchi xalqlarning umumiyligi ma`naviy mulkidir. Abay xalqlarni do`stlik va birodarlikka, hamjihatlikka chaqirdi. Tinchlik va osoyishtalikni, mehr-muhabbatni ulug`ladi.

Abay ijodini o`rganishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

“Kvadrat test” usuli. Bu usulda adib ijodiga xos bo`lgan to`plamlar yoki dostonlar nomlari kvadratlarga yozilladi, asarning janrini o`quvchi bo`sh kvadratda yozishi lozim bo`ladi. Masalan:



”Ekspress savol-javob” usuli

Bu usulda tezkor savollar beriladi va o’ylashga vaqt berilmaydi.

1. Abayning haqiqiy ismini ayting?
2. Abay nomi qaysi tumanga berilgan?

Abay ijodiy merosining salmoqli qismini xalqni ilm-ma’rifatga, madaniyatga da’vat qiluvchi «Naqliya so‘zlar» majmuasi tashkil etadi. Hassos adib va shoir ushbu asarida inson hayotida muhim o‘rin tutadigan aql, ilm-ziyo, insof vaadolat, yaxshi xulq, muomala madaniyati, din, e’tiqod, davlatni idora qilish, xalqlar, elatlarning ahil, do’stona munosabatda bo’lishlari haqida mulohaza yuritadi. Asar 44 bo‘limdan iborat. Buyuk oqin Abay qalamiga mansub ushbu «so‘z»larning har biri yoshlar uchun ezgulikka da’vat, yomon xulqlardan ogoh bo‘lishga chorlovchi chaqiriqlar sifatida yangraydi. «Naqliya so‘zlar» asari o‘zbek tilida «Nasihatlar» nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Bu asarni sevimli bolalar yozuvchisi Nosir Fozilov o‘zbekchaga tarjima qilgan.



UCHINCHI SO’Z

HAR QANDAY:

- **Yalqov kishi** - qo‘rqaq va g‘ayratsiz bo‘ladi;
- **G‘ayratsiz, qo‘rqaq kishi** - maqtanchoq bo‘ladi;
- **Maqtanchoq, qo‘rqaq kishi** - aqlsiz, nodon bo‘ladi;
- **Aqlsiz, nodon kishi** - orsiz bo‘ladi;
- **Orsiz kishi** - yalqov, kishi oldida tilanchi, ochko‘z, suq bo‘ladi;



*Bunday hunarsiz
kishilar hech qachon
birovga do’st bo‘lmaydi.*

“Men kichik aktyorman”usuli orqali asardan olingan taassurotlar ko’rsatib berilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o’quvchilarga Abayning 17-so‘zini sahna ko’rinishi tarzida ijro etish topshirig’ini berishni tavsiya etaman.

Bugun biz Abay orzu qilgan birdamlik va ozodlik nashidasini surib yashamoqdamiz. O’quvchilarda bu kunlarni qadriga yetish, shukronalik hissini tarbiyalashda ham Abay ijodi biz adabiyot fani o’qituvchilari uchun darsurilamal bo‘lib xizmat qiladi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.“O’qituvchi nimalarni bilishi kerak?” (O’quv-metodik qo’llanma Toshkent – 2016)
- 2.Darsliklar bo‘yicha metodik qo’llanmalar
3. ziyonet.uz
- 4.kitob.uz

Май | 2022 8-қисм

Тошкент

33



MUMTOZ ASARLARNI O'QITISH BO'YICHA TAVSIYALAR

**Toshpo'latova Dilshoda Adxamovna
Alijonova Oygul Abdurayimovna**
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
e-mail:dilshoda@mail.ru

Annotatsiya: maqolada o'quvchilarga mumtoz asarlarni tushuntirish, mumtoz asarlar ustida ishslash, she'riy asarda vazn turlari va ahamiyati masalasi yuzasidan tavsiyalar va fikrlar berilgan

Kalit so'zlar: adabiyot, mumtoz asarlar, she'riy asarlar, tahlil

Aruz she'riy tizimi bilan o'quvchilarni tanishtirish, avvalo, amaliy maqsadni ko'zlaydi. Gap shundaki, mazkur she'riy o'lchov tizimi asosida yaratilgan she'riy asarlarni ifodali o'qish aruz nazariyasidan puxta bilimga ega bo'lishni talab etadi. Aruz o'lchovining yetakchi jihatlari – uning qisqa va cho'ziq bo'g'inlar takroriga asoslanishi, asosiy ruknlari, bahrlari, vaznlari, ifodali o'qish usullarini yaxshi o'zlashtirmay turib, ushbu tizim asosida bitilgan asarlarni to'g'ri, savodli tarzda o'qish mumkin emas. Shuning uchun ham o'qituvchi diqqati dastavval mana shu masalaga qaratilmog'i lozim.

Aruz tizimidagi xilma-xil lirik va epik asarlarni ifodali o'qish, ularning vazn xususiyatlarini tahlil qilish va turli-tuman o'lchovlarni aniqlash malakalarini egallash uchun ham mazkur tizimning nazariy masalalaridan yetarli darajada xabardor bo'lish talab etiladi.

Adabiy ta'lilda aruz she'riy tizimining nazariy va amaliy masalalarini

izchil o'rganishga kirishiladi. Ushbu yo'nalishdagi mashg'ulotlar davomida o'qituvchi diqqati quyidagi masalalarga qaratilishi darkor:

- vaznning she'riy asardagi o'rni va roli, vazn turlari, har qaysi vaznning ritm-ohang imkoniyatlaridan o'quvchilarni xabardor qilish;

- o'quvchilarni aruz tizimining eng muhim nazariy masalalari bilan tanishtirish, har bir asar vaznni ularga o'rgatib borish;

- ushbu tizim vaznlarida yozilgan lirik va epik asarlarni ifodali o'qish malakalarini mustahkamlab borish;

- shoirlarning she'riy o'lchov tanlash mahorati, asar g'oyasini mujassamlashtirish, lirik va epik qahramonlar qiyofasini chizishda vaznlarning ritmik-ohangdorlik xususiyatlaridan foydalanganligini ochib berish;

- o'quvchilar ongida o'zbek aruzining shakllanish tarixi va rivojlanish qonuniyatları, yetuk shoirlarning o'zbek aruzi tarqqiyotiga qo'shgan hissalari

haqida tushunchalar hosil qilish.

O'quvchilarga she'riy asarda vaznning o'rni va ahamiyatini tushuntirish

ishi albatta, tayanch sinflarda olingan bilim va tajribalarga asoslanadi. O'qituvchi 8-sinfda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari matni ustida ishslash jarayonida she'riy asarda vaznning ahamiyatini yana bir bor ta'kidlab o'tadi.

Dasturga muvofiq ushbu sinfda Lutfiy she'riyatidan namunalar o'rganish

ham ko'zda tutilgan. Bu asarlarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilish jarayonida shoirning vazn ustida ishslash mahoratining ba'zi qirralari o'zlashtiriladi.

Lutfiy g'azal va tuyuqlarining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida shoirning vazn tanlashdagi mahoratini alohida ta'kidlab, har bitta asar vazni go'yo, lirik qahramon kayfiyatini yorqinroq ochishga yordam bergenini ta'kidlab o'tish darkor.

Ma'lumki, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'zbek aruzi taraqqiyotiga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Fors-tojik she'riyatini, shu jumladan uning vazn xususiyatlarini atroflicha o'rgangan Navoiy turkiy aruzning taraqqiyot yo'llarini chuqur tasavvur qilgan holda qator yangi bahrlar, o'nlab yangi vaznlarni she'riyatimizga olib kirdi. Aruzshunos olim Anvar Hojiahmedovning guvohlik berishicha, Naoviygacha adabiyotimizda istifoda qilingan vaznlar 40 ta bo'lsa, ulug' shoirning xizmatlari tufayli bu xil o'lchovlar soni 100 ga etdi.¹

Alisher Navoiy o'zbek aruzining bir qator ichki imkoniyatlarini kashf etdi, qofiya, radiflardan mohirona foydalangan holda ohang jilolariga erishishning usullarini yaratdi. U she'riyatimizga

1 Qarang: Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznni o'rganish. T., O'qituvchi, 1995, 142-bet.



qator yangi she’riy janrlar olib kirish bilan ham aruzning tezkorlik bilan taraqqiy qilishiga yo‘l ochib berdi.

Alisher Navoiy ijodini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar mana shunday muhim masalalar bilan tanishadilar, buyuk ijodkor she’riyatining vazn jihatdan barkamolligi haqida atroficha tasavvurga ega bo‘ladilar. Shuni alohida takidlash kerakki, aruz tizimiga oid nazariy bilimlarni o‘rgatishmi yoki amaliy xarakterdagi darslar jarayonida aruziy qoidalarni eslab, olingan bilimlarni mustahkamlashmi, umuman aruzga doxil darslarda u yoki bu xil ko‘rsatmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Negaki, o‘quvchilarga yetkaziladigan barcha ma’lumotlar dars jarayonida sinf taxtasiga yoziladigan bo‘lsa, vaqt byudjeti masalasida chigallik yuzaga kelishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, adabiyot o‘qituvchisi doimo ko‘rgazmali vositalardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. -Toshkent: Fan, 1983, 167 s.
2. Ishoqov Yo. Navoiy lirkasida ruhiy tasvir va tahlil. //”O’zbek tili va adabiyoti”, 1991, 4-son, 15-20-b.



YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Galdiyeva Gulnoza Olimboyevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani

24-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998 94 069 29 89

Boboniyozova Sezgira Shavkatovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani

24-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998 93 758 75 64

Annotatsiya: Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va ularga xos xususiyatlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati, nafsga qarshi kurash masalasi, Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hikmatlar, tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, tarbiya, oshiq.

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Adib tasavvufni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to'g'ri yo'lga da'vat etishdir. To'g'ri yo'l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o'zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo'liga kirmog'i, butun kuch va vujudini shu yo'lga qaratmog'i kerak. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o'rini bo'ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o'zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash o'rini bo'ladi. Badiiy asarlar ta'sirchanligi, musiqiy ohangi, jozibasi bilan kishini o'ziga jalb qiladi shu asnoda ular insonlar ruhini tarbiyalaydi. Adabiyot insonlarga dunyo hodisalari mohiyatini anglash, insonga xos tuyg'ularning rangin qirralarini his eta olish, insoniy fazilarlar va nuqsonlar mohiyati haqida o'ylash imkonini beradigan, har bir shaxsni ruhiy kamolot hamda yuksak ma'naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vosita hamdir. Adabiyot go'yo yerdan otilib chiqayotgan toza buloq suviga o'xshaydi. O'sha buloq suvining bir tomchisi ham jonimizga huzur bag'ishlagani kabi adabiyot ham sekinlik ila qalbimizning tubtubiga singib, hayot davomida orttirgan qalb jarohatlarimizga malham bag'ishlaydi. O'qiyotgan har bir asarimiz bizni yangi olamga, turfa taqdirlar, chigal qismatlar ro'parasiga olib chiqadi. Asar voqealarini bilan ulg'ayib, mashaqqatli yo'llarni ortda qoldirib, nurli tonglarni qarshilab, muammolar yechimiga guvoh bo'lamiz.

Bu yechim esa bizga xatolarimizni tan olib, nurli kelajak uchun dadil qadam tashlashga undaydi. Inson uchun bugungi kunda tansiq bo'lib borayotgan mehrning ulug'ligini atoqli adibimiz Said Ahmadning "Qorako'z Majnum" hikoyasini o'qib guvoh bo'lganmiz. Oddiy jonivorning egasi Saodat ayaga bo'lgan mehri biz insonlarni larzaga soladi, tarbiyalaydi... Asarni o'qirkanmiz har tomonlama mukammal qilib yaratilgan inson ham orzu havaslar, yolg'on ishq – muhabbat ortidan quvib qiymati tengsiz, olmosdek kamyob mehrni unutib, Bo'rixonning ahvoliga tushadi. Ajdodlari avaylagan qadri baland milliy qadriyatlarni unutib qo'yadi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsni jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining "mahshar kunida armoni" bo'lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida "Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il" deb ta'kidlanadi. Bu nafsnini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko'tarila olishiga doir mulohazadir. Ishq tushding, o'tga tushding, kuyib o'lning, Parvonadek jondin kechib axgar bo'lning, Dardga to'lning, g'amga to'lning, telba bo'lning, Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q. Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisol o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'zshatadi. Eng muhimi, ishq o'tida dard, g'am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz vas sho'ir ta'biri bilan aytganda "bu dardni bedavo derlar" (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta'riflab Alisher Navoiy "Mahbub ulqulub" asarida yozadi: "buni



ko`rmagan kishi bo`lmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron-ufiroq mundin iboratdur...”. Shu ishq tavsifiga bag`ishlab Navoiy “Layli va Majnun” dostonini tozgani sizga ma`lum. Ahmad Yassaviy ta`kidlaydiki, ishq odamning “Majnun sifat aqlin olib laylo qilur”, yana davomidan ta`kidlaydi – “Olloh haqqi bu so`zlarni yolg`oni yo`q”. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yo`li”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qo`llaydi. Adib to`g`ridan to`g`ri nafsga qarshi kurashni, uning yo`rig`iga yurmaslikni targ`ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko`rsatib beradi. Nafs yo`lig`a kirgan kishi rasvo bo`lur, Yo`ldan ozib, toyib, to`zib gumroh bo`lur. Yotsa, qo`psa shayton bilan hamroh bo`lur, Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Foydalanimadigan adabiyotlar ro`yxati:

1. B. To`xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. 1991-yil.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000